

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY HISOBLAR
TIZIMINING XORIJ DAVLATLARI HISOBLARI TIZIMI BILAN
O`XSHASHLIK TOMONLARI**

Do'smuxamedova Nozima Xamidulla qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

2-kurs talabasi Panjiyeva Mahliyo Muxtor qizi

***Kalit so`zlar:** Iqtisodiyot, milliy hisob, MHT,SNA,IMF,bozor, is`temol, YAIM, mamlakat, ishlab chiqarish, ko`rsatkich,MHXS*

***Anotatsiya:** Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasi Milliy hisoblar tizimining xorij davlatlari hisoblari tizimi bilan o'xshashlik tomonlari tahlil qilinadi. Milliy hisoblar tizimi (MHT) iqtisodiy faoliyatni tizimli va aniq ravishda qayd etish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va prognoz qilish uchun zarur bo'lgan asoslardir. O'zbekistonning MHT-si, boshqa mamlakatlardagi tizimlar kabi, xalqaro metodologiyalar va standartlarga, xususan BMT tomonidan ishlab chiqilgan Milliy hisoblar tizimi (SNA) va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tavsiyalariga asoslanadi.*

O'zbekiston Milliy hisoblar tizimi va xorij davlatlari tizimlarining o'xshashliklari xalqaro standartlarga moslik, iqtisodiy tahlil va prognozlar ishlab chiqishda o'zaro ma'lumot almashinishni va samarali iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni osonlashtiradi. Bu o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

***Ключевые слова:** Экономика, национальный счет, МНТ, СНС, МВФ, рынок, потребление, ВВП, страна, производство, показатель, МНХС.*

***Аннотация:** В данной работе анализируются сходства между системой национальных счетов Республики Узбекистан и системой счетов зарубежных стран. Система национальных счетов (НСС) является основой систематического и точного учета экономической деятельности, анализа и прогнозирования экономических процессов. НМС Узбекистана,*

как и системы других стран, основана на международных методологиях и стандартах, в частности, на Системе национальных счетов (СНС), разработанной ООН, и рекомендациях Международного валютного фонда (МВФ).

Сходство системы национальных счетов Узбекистана с системами зарубежных стран облегчает соблюдение международных стандартов, обмен информацией при разработке экономического анализа и прогнозов, а также реализацию эффективной экономической политики. Это, в свою очередь, играет важную роль в обеспечении экономической стабильности.

Keywords: *Economy, national accounts, SNA, IMF, market, consumption, GDP, country, production, indicator, IFRS*

Annotation: *This work analyzes the similarities of the System of National Accounts of the Republic of Uzbekistan with the system of accounts of foreign countries. The System of National Accounts (SNA) is the basis for systematic and accurate recording of economic activity, analysis and forecasting of economic processes. The SNA of Uzbekistan, like the systems of other countries, is based on international methodologies and standards, in particular, the System of National Accounts (SNA) developed by the UN and the recommendations of the International Monetary Fund (IMF).*

The similarities between the System of National Accounts of Uzbekistan and the systems of foreign countries facilitate compliance with international standards, mutual exchange of information in the development of economic analysis and forecasts, and the implementation of effective economic policy. This, in turn, plays an important role in ensuring economic stability.

KIRISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yilgi “Davlatning iqtisodiy siyosatini isloh qilish va uni jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilish to`g`risida”gi farmonida milliy hisoblar tizimining rivojlanishini xalqaro miqyosda integratsiyalashishni

nazarda tutgan. Bunga xalqaro moliyaviy tashkilotlar, masalan, Jahon banki va BMT ning statistik idoralari bilan hamkorlikni kuchaytirish kiradi.

Shuningdek, 2019-yilda Prezidentning “Iqtisodiy va ijtimoiy statistika tizimini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar “to`g`risidagi qarori qabul qilindi. Bu qaror bo`yicha iqtisodiy tahlilning aniqligi va ishonchliligini oshirish uchun yangi tizimlar, metodologiyalar joriy etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosati va qarorlari milliy hisoblar tizimini yanada shaffof va samarali qilishga, shuningdek, xalqaro iqtisodiy tahlillar va hisob-kitoblar bilan moslashtirishga xizmat qilmoqda. Bu nafaqat mamlakat ichidagi iqtisodiyotni to`g`ri baholash, balki xalqaro miqyosda O`zbekiston iqtisodiyotini to`g`ri ko`rsatish uchun ham muhimdir.

Mamlakatda sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning statistik ko`rsatkichlarda to`liq aks ettirilishi keng ko`lamli islohotlar natijasini chuqur tahlil qilish, shuningdek, berilayotgan imtiyozlar, kiritilayotgan investitsiyalar samaradorligini to`g`ri baholash, ular asosida xolis qarorlar qabul qilish, samarali reja hamda dasturlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Milliy hisoblar tizimi- mamlakat iqtisodiy rivojlanishining xalqaro statistika amaliyotida qabul qilingan umumlashtiruvchi ko`rsatkichkari tizimi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatlarning makro darajadagi milliy mahsulotini va milliy daromadini hisoblash metodologiyasidir. Milliy hisoblar tizimi jarayonlarining turli bosqichlarini va iqtisodiyotdagi eng muhim o`zaro aloqalarni aks ettiradigan hisoblamalar va balans jadvallari to`plamidan iborat. Uning muhim belgisi xalq xo`jaligi faoliyati yakunlarida moddiy ishlab chiqarishdan tashqari nomoddiy xizmatlar sohalarini ham aks ettirishdir. Bunday yondashuvda butun mamlakat iqtisodiy faoliyatining umumlashtiruvchi tavsiflariga erishiladi. Milliy hisoblar tizimi negizini ishlab chiqarish, iste`mol, jamg`arish va xo`jalik yurituvchi sub`ektlar o`rtasidagi real munosabat jarayonida qayta taqsimlash tamoyili tashkil etadi. Bu tizim yer va kapitalni mehnat bilan teng darajada qiymatni yaratishda qatnashuvchi omillar tarzida qaraydigan konsepsiyaga asoslanadi.

Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy faoliyatni umumlashtiruvchi ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulot (YAIM) dir[1].

A.Smit, K.Marksning siyosiy iqtisod ta'limotlari: xalq xo'jaligini moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan va ishlab chiqarmaydigan sohalarga ajratish, unumli va unumsiz mehnat, jami ijtimoiy mahsulot, milliy daromadni yaratish, uni taqsimlash va pirovard foydalanish nazariyalari yotar edi. Unda xo'jalik yurituvchi sub'yektlar orasidan mavjud aloqalar, aholi farovonligi va turmush darajasiga baho berish, mehnatga haq to'lash, davlat byudjeti, kredit, to'lov balansi kabi tushunchalar va tashniflashlar yetarlicha yoritilmas edi.

Zamonaviy Milliy hisoblar tizimini yaratish va uni takomillashtirishga iqtisodchi olimlardan J.Keyns, V.Leontyev, S.Kuznets, R.Stoun, K.Klark va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Butun dunyoda kapitalistik davlatlar iqtisodiyotini qamrab olgan 1929-1933 yillardagi inqiroz davlat ijtimoiy bozor faoliyatini bir tomonlama, faqat kuzatib turish emas, balki uning ichki mohiyatini tahlil qilib muvofiqlashtirib turishi lozimligini ko'rsatdi. 20- asrning 30-yillarida Anliya, Avstriya, Fransiya, Norvegiya, Germaniya V AQSHda milliy daromad ko'rsatkichi hisoblandi.40-50 yillarda kapitalistik mamlakatlarda Milliy hisoblar tizimini qo'llash kengaya bordi va ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng davlatni boshqarish tizimida Milliy hisoblar tizimini qo'llash zaruriyati yanada kuchaydi. 1951-yilda Parijda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining Milliy hisoblar tizim standarti loyihasi qabul qilindi. 1953-yil BMT ning statistika bo'limi tomonidan amaliyotga tadbiq etish uchun Milliy hisoblar tizimining andozasi qabul qilindi. 1968-yil BMT ning statistika kommissiyasi 15 yillik tajriba asosida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro andozasini ishlab chiqdi va u 1993 yilning fevralga qadar qo'llanildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, hisob va statistikani xalqaro andozalarga o'tkazishga kirishildi va shu maqsadda 1994-yilda "O'zbekiston xalqaro amalyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi" ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu ishga O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi rahbarlik qiladi va 1991-

2002-yillar bo'yicha, daromadlarning hosil bo'lishi, taqsimlanishi, ulardan foydalanish, shuningdek, kapital harajatlarning umumiy hisoblamalari tuzildi. Milliy hisoblar tizimini "Yevropa M.H-T.-95" metodologiyasi asosida O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish davri xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish bilan bog'liq ishlar amalga oshirilmoqda.

Insonyatga oddiy hisoblarni amalga oshirish zaruriyati tug'ilganda, bu ishni ular qo'lidagi barmoqlari yordamida bajarganlar. Jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida insonlar insonlar hisob-kitoblarni qo'l barmoqlari bilan emas, balki ayrim predmetlar orqali bajarishga kirishdilar.

Insoniyatning rivojlanishi va statistik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarni oshib borishi statistikasi markazlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu masalaning zarurligi birinchi xalqaro statistika kongressida (1853 yil Bryussel) ham ta'kidlab o'tadi va har bir davlatda markaziy statistika kommissiyalarini tuzish taklif etildi.

Hammasi bo'lib, o'nta kongress o'tkazilgan. 1880-yillarga kelib davlat statistika organlarini rasmiy birlashtirish mumkin emasligini tushunib yetgan mutaxassislar statistika "ochiq" asotsatsiyasini tuzish taklifi bilan chiqdilar va shunday tashkilot -Xalqaro statistika instituti 1887-yil Rimda tuzildi. Bu birlashmaning (bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatmoqda) asosiy maqsadi – davlatlarning statistik ma'lumotlari o'zaro taqqoslama bo'lishini ta'minlash va xalqaro statistik to'plamlarni nashr etishdir. Hech qanday shubha yo'qki, bu maqsadga erishildi va erishilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, iqtisodiyotni boshqarish bozor iqtisodiyoti prinsiplari asosida olib borilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish o'ta murakkab jarayon bo'lib, bu iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi yangi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakillantirish va uni amaliyotga tadbiiq etishni talab etadi.

Bu qonunlardan samarali foydalanish, ularni hayotga tadbiiq etish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakillantirishda, uning asosiy quroli bo'lgan milliy hisobchilik tizimi asosiy va zaruriy ahamiyatga egadir. Bozor

iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan 198 mamlakatda iqtisodchilar makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlarini uyg'unlashtirishda milliy hisoblar tizimi uslublaridan u yoki bu darajada foydalanishmoqda.

Milliy hisoblar tizimi – aynan bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizim bo'lib, milliy iqtisodiyot bo'yicha chambarchas bog'langan statistik ko'rsatkichlarni makroiqtisodiy tuzilmada baholash, hisob-kitoblar to'plami va balans jadvallar tuzish, iqtisodiy faoliyat natijalarini xarakterlash hamda iqtisod tuzilmasini va boshqa muhim zaruriy bog'lanishlarni ifodalashga xizmat qiladigan tizimdir.

Shu jihatdan ham xalqaro andozalar talablariga muvofiq respublikada milliy hisoblar tizimini joriy etish maqsadida 1994-yil 24-avgustda “O'zbekistonda xalqaro amaliyotda qabul oxirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasining keyingi baholash missiyasi bayonotida, jumladan bunday deyiladi:

“O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekiston o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir.

Rossiya tizimida SNAning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash statistik hisobi

Rossiya SNA quyidagi hisoblarni ajratib turadi:

- 1) Mahsulot va xizmatlar hisobi;
- 2) Ishlab chiqarish hisobi;
- 3) Daromad olish hisobi;
- 4) Daromadlarni taqsimlash hisobi;
- 5) Daromaddan foydalanish hisobi;
- 6) Kapital xarajatlar hisobi;

7) Moliyaviy hisob.

Ularning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarish va xizmatlar;
- Aniqlashda barcha ishlab chiqarilgan omillari bir xil rol o`ynaydi :

Yalpi milliy mahsulot (YaIM) asosiy ko`rsatkichlardan biridir milliy hisoblarni tuzishda. Bu generalga ishora qiladi, egalari tomonidan ishlab chiqarilgan barcha yakuniy mahsulot va xizmatlarning qiymati bir kalendar yili uchun ishlab chiqarish omillari.

YaIM ikki usul yordamida hisoblanadi:

1) Daromad bo`yicha. Ushbu usulga ko`ra, YaIM barchaning yig`indisidir joriy davr uchun olingan yoki yaratilgan daromad;

2) Xarajatlar bo`yicha. Bu usul YaIMni ifodalaydi deb taxmin qiladi butun hajmni sotib olish uchun zarur bo`lgan xarajatlar to`plamidir bozorda ishlab chiqarish.

YaIM ni aniqlashda ikki marta hisoblashning oldini olish uchun statistikalarni qilmaydi oraliq mahsulotlarni hisobga olish. Oraliq mahsulotlar – qayta ishlangan mahsulotlar yoki is`temolchi uni sotib olmaguncha bir necha marta qayta sotiladi. Xuddi o`sha payt, yakuniy mahsulotlar - bu tovarlar va xizmatlar iste'molchi faqat oxirgi foydalanish uchun sotib oladi.

Shuningdek, YaIMni aniqlashda yakuniy mahsulot tannarxidan tashqari, qo'shilgan qiymat miqdorini hisobga olishga ruxsat beriladi. Qo'shilgan qiymat - yaratilgan mahsulot narxi va o'rtasidagi farq uni ishlab chiqarish uchun sarflangan xom ashyo xarajatlari mahsulot.

YaIMni hisoblashda quyidagi operatsiyalar hisobga olinmaydi:

- moliyaviy operatsiyalar;
- ishlatilgan tovarlarni sotish.

Moliyaviy operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- davlat transfert to'lovlari;
- shaxsiy transfer to'lovlari,
- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar.

Xulosa:

Makroiqtisodiyotda turli maqsadlarga yo`naltirilgan ko`rsatkichlar (YaIM, sof ichki mahsulot, yalpi milliy mavjud daromad va boshqalar) dan foydalaniladi. YaIM xalqaro amaliyotda keng qo`llaniladi. U xalqaro va milliy amaliyotda iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijalarini ifodalovchi ko`rsatkich bo`lib xizmat qiladi. MHT umumiy schyotlarida YaIM ni takror ishlab chiqarishning har xil aspektlari: ishlab chiqarish, shakillantirish, taqsimlash va jamg`rish hamda boshqa qator maqsadlari aks ettiriladi. YaIM da o`zaro bog`langan va bir-birini taqozo etadigan tovarlar va xizmatlar, daromadlar oqimi takror ishlab chiqarish jarayonida bosqichma-bosqich ifodalanadi. Yuqoridagi holatlarni hisobga olib, O`zbekistonda ham 1992 yildan boshlab, mazkur ko`rsatkich hisoblanmoqda. O`zbekiston Respublikasida YaIM ning hisoblanishi jahon davlatlari bilan xalqaro taqqoslashni hamda BMT Statistika kommissiyasi talablarini bajarish uchun mo`ljallangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Milliy hisoblar tizimi to`g`risida 2018-2019 yillarda chiqargan qarorlari.
2. Ryabushkin B.T., Xamenko T.A., Sistema natsionalnix schetov, M.,1993
3. X.A Shodiyev, I. H. Habibullayev. Statistika: Darslik-T.:”Iqtisod - moliya“, 2018.-448b.
4. Dosmukhamedova, N. (2024). REGIONAL INTEGRATION AND TRADE: ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC RELATIONS. *Technical science research in Uzbekistan*, 2(7), 56-59.
5. Dosmukhamedova, N. (2024). GREEN ECONOMY: UZBEKISTAN'S ROLE IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGY. *Technical science research in Uzbekistan*, 2(7), 52-55.

<https://www.lex.uz/>

www.arxiv.uz

Docx.uz